

BANK QANDAY HOLLARDA MIJOZ HISOBVARAG'IDAN PUL MABLAG'LARINI UNING ROZILIGISIZ O'CHIRISHI MUMKIN ? O'ZBEKISTON VA JAHON TAJRIBASIDA

Yaqubova Guli Qosimboy qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti
Xususiy huquq fakulteti 3-kurs talabasi

karomatbekcanov@gmail.com

Annotasiya. Ushbu maqola bugungi kunda rivojlanayotgan raqamli iqtisodiyotning ajralmas qismi bo'lgan bank hamda mijoz o'rtasida kelib chiqadigan bank hisobvarag'idagi pul majblag'larini mijozning roziligisiz o'chirish haqida bo'lib. Maqola doirasida biz ikkita tadbirkorlik subyekti hisoblangan bank, xo'jalik jamiyatlari xususiy korxonalar, shuningdek bank va fuqarolar o'rtasida tuziladigan bank hisobvarag'i shartnomasi tushunchasi, bank hisobvarag'i turlari, hisobvaraqdan pul mablag'larini mijozning roziligisiz o'chirish asoslari va uning huquqiy oqibatlari qanday bo'lishligi haqidagi ma'lumotlarni soxaga oid milliy va xorijiy olimlarning fikrlari va qarashlari, O'zbekiston va Jahon tajribasi orqali tahlil qilamiz .

Mazkur ish doirasida fuqarolik huquqida bevosita o'zining muhimligi bilan ajralib turadigan bank hisobvarag'i shartnomasi hamda, hisobvarag'dan pul mablag'larini bank qanday vaziyatlarda mijozning roziligisiz o'chirib olishi keyslar va boshqa manbalar orqali muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: Xususiy mulk, bank hisobvarag'i shartnomasi tushunchasi, bank hisobrag'i turlari, jamg'arma depozit hisobvarag'i, muddatli depozit hisobvarag'i, hisobvarag'dagi pul mablag'larini mijozning roziligisiz o'chirish asoslar.

IN WHAT CASES CAN THE BANK WITHDRAW MONEY FROM THE CLIENT'S ACCOUNT WITHOUT HIS CONSENT? IN THE EXPERIENCE OF UZBEKISTAN AND THE WORLD

Yakubova Guli Qosimboy kizi

3rd year student of Private Law Faculty of
Tashkent State University of Law

karomatbekcanov@gmail.com

Abstract. This article is about deleting funds from a bank account without the customer's consent, which is an integral part of today's evolving digital economy. As part of the article, we will talk about the concept of a bank account agreement, types of bank accounts, the grounds for withdrawing funds from the account without the client's consent, as well as private enterprises, as well as banks and private business entities. We analyze the information about the legal consequences through the opinions and views of national and foreign scientists in the field, the experience of Uzbekistan and the world.

Within the framework of these cases, the bank account contract, which is of direct importance in civil law, as well as cases of withdrawal of funds from the account by the bank without the consent of the client, are discussed through the case and other sources.

Key words: Private property, the concept of a bank account agreement, types of bank accounts, savings deposit accounts, term deposit accounts, grounds for withdrawing funds from the account without the client's consent.

Kirish

Bugungi xalqaro to'lovlar, xalqaro shartnomalar, investitsiyalar jalb qilinayotgan bir paytda bank hisobvarag'i bo'yicha operatsiyalar va ulardan pul mablag'larini mijozning rozilgisiz o'chirish yoki hisobvarag' bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib qo'yilishi mamalakat rivojlanishiga, tadbirkorlik subyektlarining ko'rsatayotgan faoliyatiga sa'lbiy ta'sir o'tkazishi aniq. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan davrda yashar ekanmiz, xohlaymizmi yo'qmi tadbirkorlik subyetlari o'z faoliyat yuritishini osonlashtirish uchun, bank bilan bank hisobvarag'i shartnamasini tuzish orqali, bank hisobvara q operatsiyalarini olib boradi. Bunday holatlarda mijoz o'z majburiyatlarini bajarmaganligi natijasida uning hisobvarag'idan pul mablag'lari o'chiriladi. Bunday holatlar bank hisobvarag'i shartnomasida, qonun hujjatlarida keltirib o'tilgan bo'ladi. Biz, mana shunday muhim mavzuni, ya'ni qanday hollarda bank hisobvarag'idagi pul mablag'lari mijozning rozilgisiz o'chirilishi kerak ? degan savolga sizlar bilan birgalikda javob olamiz.

Tadqiqot natijalari

Rivojlanib borayotgan iqtisodiyot sharoitida bank va u tomonidan olib borilayotgan operatsiyalar rivojlangan bir paytda, bank hisobvarag'i shartnomasi hamda hisobvara qdagi pul mablag'larini mijozning rozilgisiz o'chirish katta ahamiyat kasb etadi. Sababi, mijozning hisobvarag'idagi pul mablag'lari uning shaxsiy ya'ni xususiy mulkidir. Xususiy mulkning daxlsizligi uni davlat tomonidan qo'riqlanishi 1992-yilning o'zida qabul qilingan **O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 53-moddasida “ Xususiy mulk daxlsiz va davlat himoyasida ekanligi . Mulkdor faqat qonunda nazarda tutilgan hollardagina undan mahrum qilinishi belgilangan”¹** . Ushbu

¹ <https://lex.uz/docs/-20596>

normaning borligi bankdagi mulkdorlarning hisobvaraqlaridagi pul mablag'lari daxlsiz va davlat himoyasi bilan kafolatlanishini anglatadi. Xususiy mulk AQSH hamda Rossiya federatsiyasi davlatlarida ham konstitutsiya jihatidan kafolatlanganmi, yo'qmi? degan savol tug'iladi. **AQSh Konstitutsiyasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, konstitutsiyaning 5- o'zgartirishida "Xususiy mulk adolatli tovonsiz davlat ehtiyojlari uchun olinmasligi kerak"** degan so'z tilgan olinadi. Bundan tashqari, ushbu **konstitutsiyaning 1-10-o'zgartirishlarida, "Fuqarolik huquqlari kafolatlangan bo'lsada, konstitutsiya o'z-o'zidan mulk huquqlarini kafolatlamaganligi ko'rsatiladi"**². Ushbu qoidalardan kelib chiqib shuni aytishimiz mumkinki, AQSHda ham xususiy mulk davlat ehtiyojlari uchun olinmasligi belgilanib qo'yilgan. Xususiy mulk **Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasida** ham mustahkamlab qo'yilgan bo'lib, **konstitutsiyaning bevosita 123-23-moddasi** va boshqa bir-nechta moddalari bilan, **"Xususiy mulk davlat himoyasida ekanligi va undan hech kim mahrum etilmasligi belgilangan"**³. Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, mamlakatimizda hamda yevropa davlatlarida xususiy mulk huquqi davlat himoyasida ekanligi belgilangan. Bu davlatlarning rivojlanib borayotganligidan dalolat berish bilan birga, fuqarolarga hamda yuridik shaxslarga berilgan imkoniyatlaridan biri ekanligini ko'rsatadi.

Bank hisobvarag'i shartnomasi –bugungi rivojlanayotgan raqamli iqtisodiyotning oldi qatorlarida turadigan shartnomalardan biridir. Ushbu shartnomaning mazmuni quyidagicha: naqd pulsiz olib boriladigan hisob-kitob va kredit operatsiyalarini tashkil etish va amalga oshirish uchun zaruriy vositasi

² <https://people.uwec.edu/ivogeler/w270/privateproperty.htm>

³ Civil Code of the Russian Federation (Wording with amendments dated 14.07.2022//<https://rospatent.gov.ru/en/documents/1-civil-code-of-the-russian-federation-part-one/download>

sifatida qaraladi⁴. Shuningdek, bank hisobvarag'i yuridik va jismoniy shaxslarning bugalteriya hisobini yuritishning bir usuli hamdir. **O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 771-moddasi** bank hisobvarag'i shartnomasiga bag'ishlangan bo'lib unda quyidagi gaplar joy olgan. **Bank hisobvarag'i shartnomasi bo'yicha bir taraf — bank yoki boshqa kredit muassasasi , ikkinchi tarafning — mijozning hisobvarag'iga tushayotgan pul mablag'larini qabul qilish va kiritib qo'yish, mijozning hisobvaraqdan tegishli summalarini o'tkazish va to'lash hamda hisobvaraq bo'yicha boshqa operatsiyalarni amalga oshirish haqidagi farmoyishlarini bajarish majburiyatini oladi** ⁵. Ushbu shartnomaning ahamiyati shundaki, bugungi rivojlanayotgan raqamli iqtisodiyotda banklarga foyda olish maqsadini berish, shu bilan birga, yuridik va jismoniy shaxslarning ortiqchga ovoragarchiligiga yo'l qo'ymaslik. Bank hisobvarag'i shartnomasi ijro etilish usuliga ko'ra haq evaziga tuziladigan shartnomadir. Aynan ushbu qoida **Buyuk Britaniya qonunchiligada**, bizning qonunchiligimizdan farq qilar ekan. Sababi, **Simmionning “Bank hisobvarag'i shartnomasi”** haqidagi kitobda shunday fikrlar joy olgan. **“Bank hisobvaragi shartnomasi yuzasidan bank tominidan ko'rsatiladigan xizmatlar uchun haq to'lash taraflarning kelishuviga asosan to'lanishi lozim ammo ushbu qoida bankning doimiy mijozlariga yengilliklar berish orqali amalga oshiriladi”**⁶ . Bundan ko'rinib turibdiki ushbu qoida bizning qonunchiligimizda tartibga solinmagan. Bank hisobvarag'i shartnomasi, bank hisobvarag'ining turlarini tuzish orqali shakllanadi. Bank hisobvarag'lari turlari to'rttani tashkil qiladi. **“Mijozlar bankda quyidagi hisobvaraqlarini ochishlari mumkin:**

⁴ Fuqarolik huquqi (yuridik texnikumlar uchun darslik)/ Mualliflar jamoasi. O.Oqyulov, N.Imomov, M.Baratov va boshqalar.-T: TDYU, 2021.-192-bet.

⁵ <https://lex.uz/docs/-180552>

⁶ <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S1572308919306588>

a) talab qilib olinguncha depozit hisobvaraqlari;

b) jamg'arma depozit hisobvaraqlari;

v) muddatli depozit hisobvaraqlari;

d) boshqa depozit hisobvaraqlari

jismoniy va yuridik shaxslar o'zlariga hisob-kitob va kassa xizmatlarini ko'rsatish uchun banklarni mustaqil tanlaydilar hamda bir yoki bir necha banklarda milliy va chet el valyutasidagi talab qilib olinguncha depozit hisobvaraqlari, shuningdek, jamg'arma, muddatli va boshqa depozit hisobvaraqlarini ochish huquqiga egalar"⁷. Bilamizki, xo'jalik yurituvchi subyektlar tashkil topish jararayonida davlat ro'yxatidan otkaziladi. Aynan, o'sha paytda bank tomonidan ochilgan hisobvaraq uning talab qilib olunguncha hisobvarag'i hisoblanadi. Jamg'arma depozitlari asosan, biron bir maqsadni ko'zlab, mijozlarning davriy badallari orqali shakllantirilib, jamg'arib boriladigan hisobvaraq hisoblanadi. Muddatli depozit hisobvarag'i, mijoz va bank o'rtasida muayyan bir muddatga, qat'iy tuziladi.

Bank hisobvag'idan pul mablag'larni o'chirish asoslari- O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 783-moddasida ko'rsatilgan bo'lib, unda quyidagi norma joy olgan: "Bank hisobvaraqdan pul mablag'larini mijozning topshirig'i asosida o'chiradi.

Mijozning topshirig'isiz hisobvaraqda turgan pul mablag'larini o'chirishga sudning qarori bilan, shuningdek ushbu Kodeksda yoki boshqa qonunda belgilab qo'yilgan yoxud bank bilan mijoz o'rtasidagi shartnomada nazarda tutilgan hollarda yo'l qo'yiladi". Ushbu normani sharxlaydigan bo'lsak, ushbu norma dispozitiv xususiyatga ega hisoblanib.

⁷ <https://lex.uz/docs/-1475901>

Asosan bank hisobvarag'laridagi pul mablag'lari mijozning topshirig'i bilan o'chiriladi. Lekin shunday holatlar borki, unda bank kontragentning akseptisiz pul mablag'larini yechib olishga huquqi bor. Bunday holatlarga asosan, sudning qarori bilan, yoki qonunlarda ko'rsatilgan holatlarda yo'l qo'yiladi. Bularga misol qilib quyidagilarni ko'rsatishimiz mumkin:

- a) issiqlik energiyasi uchun hisob kitoblarda⁸**
- b) talabnomaga da'vo summasini tan olish to'g'risida qarzdor yozma javobining asl nusxasi bo'lgan holatlarda**
- c) banklar tomonidan- xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan kreditlar bo'yicha qarz o'z vaqtida so'ndirilmaganda**
- d) shartnomada bank tomonidan amalga oshiriladigan xizmatlar uchun pul mablag'larini yechib olish nazarda tutilganda**
- e) kommunal qarzdorlik yuzasidan**
- f) asosiy hisobvarag'iga davlat ijrochilari tomonidan soliq qarzi bo'yicha inkasso topshiriqnomalari qo'yilgan taqdirda⁹**
- g) shartnomada ko'rsatilgan fors-major holatlarida**
- h) ish haqi bilan bog'liq bo'lgan ijro hujjatlari bo'lgan taqdirda**
- i) alimentlarni undirishga doir talablarni qondirish bo'yicha ijro hujjatlari bo'yicha ushunchi shaxslarni o'ylagan holda**
- j) mualliflik shartnomalariga oid mukofotlarni to'lashga oid ijrochi hujjatlari bo'lganda**

⁸ Fuqarolik kodeksiga sharx. II qism. Toshkent- 2013 Baktria press.//
<https://drive.google.com/file/d/1yDrzC8RQx-I2o4jxrfrDhEQnHBfxh0kt/view>

⁹ <https://lex.uz/docs/-1979969#-1980960>

k) shaxslarning hayoti va sog'lig'iga yetkazilgan zararni o'rnini qoplash bo'yicha ijrochi hujjatlari bo'lganda

va shartnomada ko'rsatilgan boshqa holatlarda mijozning rozilgisiz o'chirilishi mumkinligi aytilgan.

Bu asoslar orqali o'chirilgan pul mablag'larining barchasi qonuniydir. Sababi, Fuqarolik sudlarining ijro kuchiga teng hujjati hisoblangan buyrug'i yoki ijro varaqalari orqali pul mablag'larini o'chirish sudning hal qiluv qaroriga asosan olib boriladi. Bordinyu keyinchlik, mijoz ushbu harakatni bekor qiladigan dalillarni sudga taqdim qilib shikoyat yozsa. Unday hollarda mijozning hisobvarag'idan o'chirilgan pullar qaytarib beriladi. Ushbu norma **O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining** normalariga mosdir. Bunga misol qilib shuni aytishimiz mumkinki, mijoz aliment pullarini pochta orqali vaqtida yuborgan lekin u pochta xizmatining aybi orqali bir oydan keyin yetib bormoqda, ushbu holatda mijoz pochtaga pulni vaqtida taqdim qilganligi haqidagi dalilni sudga taqdim etsa. Sud ushbu holatni inobatga olgan holda, bank tomonidan mijozning rozilgisiz o'chirilgan pulni , mijozning hisobvarag'iga o'tirish majburiyatini qo'yishi mumkin. Sababi, aliment bo'yicha pul majburiyatini mijoz vaqtida bajargan. Vaholangki bank hisobvarag'laridan pul mablag'larini o'chirish asosalari **Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik kodesining 854-moddasida**¹⁰ berilgan bo'lib, bizda ko'rsatilgan

¹⁰"Гражданский кодекс Российской Федерации (часть вторая)" от 26.01.1996 N 14-ФЗ (ред. от 01.07.2021, с изм. от 08.07.2021) (с изм. и доп., вступ. в силу с 01.01.2022)/http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_9027/82d94ba9915573e504663796461434708a431773/#:~:text=1.,%D0%B4%D0%BE%D0%B3%D0%BE%D0%B2%D0%BE%D1%80%D0%BE%D0%BC%20%D0%BC%D0%B5%D0%B6%D0%B4%D1%83%20%D0%B1%D0%B0%D0%BD%D0%BA%D0%BE%D0%BC%20%D0

norma bilan aynan bir xil ekanligini aniqlash qiyin emas. Bundan tashqari, **Rus olimi Leonid Krasnerning “Hamma uchun bank”** kitobida qanday hollarda mijozning roziligisiz hisobvarag’dagi pul mablag’larini yechib olish asoslarini tahlil qilishda, yuqoridagi **“Mijoz bankdagi kredit qarzlarini muddatida so’ndirmaganda uning roziligisiz o’chirishi kerak”** ligi aytib o’tilgan¹¹. Mamlakatimizdagi va Rossiya qonunchiligidagi asoslar bir-biriga o’xshashdir.

Umuman olganda, milliy qonunchiligimizda hamda jahon tajribasida bank hisobvarag’i shartnomasi va hisobvarag’dagi pul mablag’larini mijozning roziligisiz o’chirish shartnomaning ikkala tarafini ham o’ylagan holda qonunchilikka kiritilgan. Bundan asosiy maqsad, banklarni yoki kredit tashkilotlarining hamda litsenziyaga ega bo’lgan nobank kredit tashkilotlarining ham xizmat ko’rsatganlariga muvofiq haq olishi, ikkinchi tommonning yuridik va jismoniy shaxslarning ovvoragarchiligi hamda faoliyatiga to’sqinlik qilmaslik bundan tashqari mijozdan moddiy yordam olishga muhtoj bo’lgan uchinchi shaxslarning ham huquqlarini va qonuniy manfaatlarini himoya qilish. Bugungi bozor iqtisodiyotiga asoslangan raqimli iqtisodiyotning asosini aynan mana shunday shartnomalarga bo’lgan talab, tobora ortishiga sabab bo’ladi. Buning natijasida mamlakat barqaror rivojlanishda davom etadi.

%B8%20%D0%BA%D0%BB%D0%B8%D0%B5%D0%BD%D1%82%D0%BE%D0%BC

¹¹Банковская книга для всех. Леонид

Краснер//<https://rulaws.ru/articles/osnovanie-spisaniya-denezhnyh-sredstv-s-bankovskogo-scheta-v-svete-polozhenij-st854-gk-rf/>

Foydalanilgan adabiyotlar / References

1. Fuqarolik huquqi (yuridik texnikumlar uchun darslik)/ Mualliflar jamoasi. O.Oqyulov, N.Imomov, M.Baratov va boshqalar.-T: TDYU, 2021.-192-bet.
2. Civil Code of the Russian Federation (Wording with amendments dated 14.07.2022//<https://rospatent.gov.ru/en/documents/1-civil-code-of-the-russian-federationpart-one/download>
3. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S1572308919306588>
4. Fuqarolik kodeksiga sharx. II qism.Toshkent- 2013 Baktia press//<https://drive.google.com/file/d/1yDrzC8RQx-I2o4jxrfRDhEQnHBfxh0kt/view>
5. "Гражданский кодекс Российской Федерации (часть вторая)" от 26.01.1996 N 14-ФЗ (ред. от 01.07.2021, с изм. от 08.07.2021) (с изм. и доп., вступ. в силу с01.01.2022)//
- 6.Банковская книга для всех. Леонид Краснер // <https://rulaws.ru/articles/osnovanie-spisaniya-denezhnyh-sredstv-sbankovskogo-scheta-v-svete-polozhenij-st-854-gk-rf/>
7. Иброҳимов, А. А. Ў. (2021). КОРПОРАЦИЯНИ БОШҚАРИШДА ФИДУЦИАР МАЖБУРИЯТЛАР ВА УЛАРНИ ЎЗБЕКИСТОНДА ҚЎЛЛАШ ИМКОНИЯТЛАРИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(10), 841-853.
8. Ibrohimov, A. A. M. O. G. L., & Nechaeva, E. V. (2022). XALQARO INVESTITSIYA HUQUQIDA MILLIY REJIM VA ENG QULAY SHARTLAR REJIMI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(2), 414-425.
9. Ibrohimov, A. A. O., Koryogdiyev, B. U. O., & Tojiboyev, S. Z. (2022). KORPORATIV NIQOBLARNI OLIB TASHLASH KONSEPSIYASI VA UNI O'ZBEKISTON KORPORATIV HUQUQIDA TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(1), 1068-1082.
10. O'G'Li, A. A. M. (2022). KORPORATSIYA USTAV KAPITALI FUNKSIYALARI VA UNGA OID MILLIY QONUNCHILIK NORMALARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI. *Academic research in educational sciences*, 3(8), 109-113.
11. Azimjon, I. (2022). ZARAR-YURIDIK SHAXS ISHTIROKCHILARI VA BOSHQARUV ORGANLARI FUQAROLIK-HUQUQIY JAVOBGARLIGINING ZARURIY SHARTI SIFATIDA.

12. Ахроркулов, А. (2022). НОТИЖОРАТ ТАШКИЛОТЛАРИ
ТУҒРИСИДАГИ ҚОНУНЧИЛИКНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ
МАСАЛАЛАРИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and
social sciences*, 2(6), 893-902.

13. Гулямов, С., & Ахроркулов, А. (2022). НОТИЖОРАТ
ТАШКИЛОТЛАР ФАОЛИЯТИНИ ТАРТИБГА СОЛИШНИНГ ҲУҚУҚИЙ
АСОСЛАРИ: МИЛЛИЙ ВА ХОРИЖИЙ ТАЖРИБА. *Oriental renaissance:
Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(5), 1029-1041.